

22. Ma'lumotlarni taqdim etish usullari

Yondosh mavzu:
Mening maktabim

To'plam va uning
elementlari,
diagramma, jadval,
chizma, sxema



1. Har bir to'plamning ikkita yetishmayotgan elementini ayting.

$$A = \{10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, \dots, \dots\}$$

$$B = \{5, 10, 15, \dots, 25, 30, 35, \dots, 45, 50\}$$

$$C = \{\dots, 1, 2, 3, 4, 5, 6, \dots, 8, 9\}$$

$$D = \{16, 25, 34, 43, \dots, \dots\}$$



2. Jadvalni o'rganing. Maktabda jami necha nafar o'quvchi bor? Qaysi sinflarda eng ko'p o'quvchi o'qiydi: boshlang'ich sinflardami, o'rta sinflardami yoki yuqori sinflardami?

O'quvchilar soni										
Boshlang'ich sinflarda				O'rta sinflarda					Yuqori sinflarda	
I sinf	II sinf	III sinf	IV sinf	V sinf	VI sinf	VII sinf	VIII sinf	IX sinf	X sinf	XI sinf
302	272	243	239	171	199	170	208	170	137	133


Bu topshiriqda ma'lumotlar qanday usulda taqdim etilgan?



3. Rasmdagi ma'lumotlardan foydalanib,

- hovlining to'la yuzini;
- hovlining uydan tashqari qismi yuzini toping.

Bu topshiriqda ma'lumotlar qanday usulda taqdim etilgan?




22. Ma'lumotlarni taqdim etish usullari



4. Diagramma bo'yicha savollarga javob bering.

- a) Sport to'garaklariga necha nafar o'quvchi qatnashgan?
b) Qanday to'garaklarga ko'proq bola qatnashdi: ijodiy to'garaklarga yoki texnik to'garaklarga?



**Ma'lumotlar turli usullar bilan:
jadval, diagramma, rasm, sxema ko'rinishida
taqdim etilishi mumkin.**



5. O'quvchilar so'rovnoma o'tkazdilar: sizga maktabda qaysi fan ko'proq yoqadi, matematikami, ona tili va o'qish savodxonligimi, tabiiy fanlarmi, musiqa yoki texnologiya fanlarimi? So'rovda 930 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Matematikaga 227 nafar o'quvchi, musiqa matematika 14 nafar ko'p o'quvchi, tabiiy fanlarga matematika va musiqa birgalikda qancha bo'lsa, shundan 2 marta kam o'quvchi ovoz berdi. O'quvchilarning uchdan bir qismi ona tili va o'qish savodxonligi uchun ovoz berdi. Har bir fan uchun necha nafar o'quvchi ovoz berdi?
Fanlarni olingan ovozlarning kamayishi tartibida joylashtiring.

22. Ma'lumotlarni taqdim etish usullari



6. Hisoblang. Natijalarni kilogrammlarga aylantiring. Axborotni to'playdigan, uni qayta ishlaydigan va olingan ma'lumotlar asosida xulosalar chiqaradigan fan qanday nomlanadi?

$$1 \text{ t } 35 \text{ q} + 1 \text{ t } 48 \text{ kg}$$

A

$$98 \text{ q } 52 \text{ kg} - 369 \text{ kg}$$

I

$$28 \text{ t } 371 \text{ kg} : 7$$

K

$$53 \text{ kg } 200 \text{ g} \cdot 50$$

S

$$373 \text{ t} : 50$$

T

2 660	7 460	5 548	7 460	9 483	2 660	7 460	9 483	4 053	5 548
-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------



7. Sinfda 20 kishining har birida smartfon yoki spinner bor. Spinner egalari smartfon egalaridan 7 marta ko'p. Kamida bitta odamda spinner ham, smartfon ham borligini isbotlang.



8. Hisoblang. Qaysi ifoda eng katta qiymatga ega?

$$(31\,500 - 900) \cdot 5 - 46\,800 : 9$$

$$581\,000 : 7 \cdot 100 - 400\,000$$

$$2\,450\,000 : 5 : 8 + 10\,000 - 90$$



9. Aziza sayohatlar haqidagi 3 ta kitobni solishtirdi. Birinchi kitobda 51 200 ta so'z, ikkinchisida esa birinchisidagiga qaraganda 3 200 ta ko'p so'z bor. Uchinchi kitobda birinchi va ikkinchi kitoblarda birgalikda nechta so'z bo'lsa, shundan ikki marta ko'p so'z mavjud. Uchinchi kitobda nechta so'z bor? Bir sahifaga 400 ta so'z to'g'ri kelsa, uning nechta sahifasi bor?